UDK: 37.042 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss2/a172**

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA SUGGESTIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH MODELI

МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ СУГГСТИТИВНЫХ НАВЫКОВ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

MODEL OF DEVELOPMENT OF SUGGESTIVE SKILLS IN FUTURE TEACHERS

Yuldashyev Elyorjon Sodiqovich[1]

[1]Yuldashyev Elyorjon Sodiqovich – Qo‘qon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotasiya

Ushbu maqolada bo‘lg‘usi o‘qituvchilarda differensial yondashuv asosida suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlar, bugungi kunda pedagoglar tayyorlash tizimini takomillashtirish, pedagoglar mahoratini oshirish, pedagogik mahorat va qobilyatlarni rivojalantirishga ega ekanligi yoritib berilgan.

Аннотация

В данной статье представлена классификация педагогических умений и социально-педагогическая необходимость их развития у педагогов, совершенствование системы подготовки педагогов сегодня, повышение квалификации педагогов, развитие педагогических навыков и умений. Каждая педагогическая способность имеет свои особенности, и поясняется, что педагогу необходимо их знать и уметь эти способности развивать.

Abstract

In this article, there is a classification of pedagogical skills and the socio-pedagogical necessity of their development in teachers, improving the system of training pedagogues today, improving the skills of pedagogues, developing pedagogical skills and abilities. Each pedagogical ability has its own characteristics, and it is explained that it is necessary for a pedagogue to know them and to be able to develop these abilities.

Kalit so‘zlar: *pedagoglar mahorati, ta’lim va rivojlanish, ta’lim-tarbiya, amaliy ko‘nikmalar, uzluksiz ta’lim, individual sifatlar, iqtisodiy taraqqiyot, ta’lim standartlari, ta’lim va tarbiya, ilmiy-metodik, sub’yektiv yangilik.*

Ключевые слова: *навыки педагогов, воспитание и развитие, воспитание и обучение, практические навыки, непрерывное образование, индивидуальные качества, экономическое развитие, образовательные стандарты, воспитание и обучение, научно-методические, субъектные инновации.*

Key words: *sports, folk traditional values, intercultural relations, practical skills, continuous education, individual qualities, economic development, educational standards, education and training, scientific-methodical, subjective innovation in students.*

KIRISH

Hozirgi sharoitda ta’lim muassasalarida pedagogik xodimlarning faoliyatlarini takomillashtirish va o‘quv jarayonini samarali tashkil etishning eng asosiy omillaridan biri pedagoglarning tashkilotchilik mahoratini egallaganligi bilan belgilanadi. Bunda tashkilotchilik faoliyatining yangi mexanizmlarini ishlab chiqish, yangiliklarni izlash, o‘rganish va ularga asoslanish, o‘z ustida muntazam ishlash, hamda ilmiy asoslangan ma’lumotlardan faoliyat jarayonida keng foydalanish, tashkiliy ishlarning pedagogik, psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini chuqur o‘zlashtirish muhim sanaladi.

O‘qituchining tashkilotchilik faoliyati o‘z o‘rnida uning tashabbuskorligi va mas’uliyatliligiga bog‘liq bo‘ladi. Bir tomondan halollik, ishchanlik, mehnatsevarlik, ma’suliyat kabi axloqiy sifatlar shunday muvaffaqiyatni ta’minlasa, ikkinchi tomondan vijdonlilik, mardlik, adolatlilik kabi ijobiy sifatlar uning atrofida jamoa a’zolarining jipslashishini va shu orqali belgilangan maqsadga erishishni ta’minlaydi.[1]

Tashkilotchi pedagogning axloqi uning ma’naviyatidagi tarkibiy qism bo‘lish bilan bir paytda shu ma’naviyatniig hosilasidir. Axloq inson tafakkuri, aql-zakovatini, butun faoliyatini tizginlab turuvchi hodisadir. Inson aqli qanchalik o‘tkir va qudratli bo‘lsa ham, uning axloqi tuban bo‘lsa, bu kuchli aql va zakovat vayronkor kuchga aylanadi. Vayronkor kuch esa shaxsning atrofidagilarga, jamiyatgagana emas o‘z faoliyatiga ham katta zarar yetkazadi.Sog‘lom axloq va uning tarkibidagi umuminsoniy qadriyatlar aql-zakovat qudratini vayrongarchilik yo‘lidan qaytarib bunyodkorlik tomon yo‘naltirib turadi.Insoniy axloqining shu jihatlari pedagog ma’naviyati va xulqida mujassamlashganda faqat pedagog shaxsning emas, u o‘qitayotgan o‘quvchilarning yoki boshqarayotgan tashkiliy faoliyatning ham bunyodkorlik tomon yo‘naltiradi.

Pedagogning ma’naviy qiyofasini shartli tarzda bir necha qatlamga ajratish mumkin. Bular quyidagilar:[2]

1.Ma’naviy qiyofa. Bu qatlam shaxs axloqi uchun poydevor vazifasini bajaradi. Ma’naviy jihatdan nochor shaxslar hech qachon axloqiy jihatdan yuksak bo‘la olmaydi. Bu sifat ayniqsa islohotlar davrida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu davrda turli xil qiyinchiliklarning mavjud bo‘lishi tabiiy holda ularni yengish uchun esa sabr-toqat bilan birga irodalilik talab qilinadi. Iroda shunday hodisa qiyinchilik va to‘siqlar paydo bo‘lganda u tafakkur, tajriba, bilimlar va ehtirosni bartaraf qilishga yo‘naltiradi. To‘siqlarni bartaraf etish uchun o‘zidagi kuch imkoniyatlarni safarbar qila oladigan irodaga ega bo‘lmagan tashkilotchi pedagog o‘z jamoasining hamkuch va imkoniyatlarini, qiyinchiliklarini yengishga safarbar eta olmaydi.Vatanparvarlik, bu sifat insonning o‘z yurtiga, xalqiga sadoqatini bildiradi. Shu sifatga ega bo‘lgan tashkilotchi va tashabbuskor shaxslar va umuman insonlar xalq vatan, jamiyat manfaatlarini o‘z manfaatlarida ustun qo‘ya oladilar.[3]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar mutanosibligi to‘g‘risida gap ketganda shuni nazarda tutish kerakki, ular o‘zaro uzviy bog‘liq hodisalar. Ular o‘rtasida birlik bilan bir qatorda tafovutlar ham bor. Bu tafovutlar muayyan sharoitda ziddiyatga aylanib ketishi ham mumkin. Mana shunday hollarda Vatan tuyg‘usiga ega bo‘lmagan shaxslar o‘zlari shaxsiy manfaatlari, uncha ko‘p bo‘lmagan foydasi uchun jamiyatning, xalqning manfaatlariga juda katta ziyon yetkazishdan ham toymaydi. Yuragida Vatan tuyg‘usi bo‘lgan tashkilotchi-pedagog o‘zininng shaxsiy manfaatlarini Vatan manfaatlaridan hech qachon yuqori qo‘ymaydi. Sanab o‘tilgan sifatlar tashkilotchi pedagog axloqiy xarakterini, yo‘nalishini belgilaydigan sifatlar hisoblanadi. Pedagogning axloqiy dunyosida yana shunday qatlam borki, u uning insoniylik darajasini belgilaydi. Bu qatlamda vijdon, mardlik, iroda kabi sifatlar muhim o‘rin tutadi.Vijdon pedagogning ma’naviy-axloqiy dunyosidagi muhim hodisalardan bo‘lib u shaxsning o‘z faoliyatini o‘zi nazorat qilishiga yordam beradi.

Boshqalar faoliyatini nazorat qilishi lozim bo‘lgan tashkilotchi pedagog o‘z faoliyatini nazorat qila olmasa, boshqalar faoliyatiga baho berishi kerak bo‘lgan o‘qituvchi o‘z xatti-harakatlarin to‘g‘ri baholay olmasa, bunday jamoada ma’naviy-axloqiy iqlim sog‘lom bo‘lmaydi. Shundan ma’lum bo‘ladiki, vijdon faqat ma’naviy-axloqiy ahamiyatga ega bo‘lib qolmasdan, katta ishlab chiqarish ahamiyatiga ham ega. Shuning uchun ham uni pedagogning ish sifatlariga qo‘shimcha sifat tarzidagina emas, muhim kasbiy sifat tarzida ham baholash lozim.Tashabbus, jonbozlik, fidoyilik ko‘rsatishga tayyor bo‘lmagan jamoaga uning foydasi tegmaydi.

Tashkilotchi pedagog mehnatsevarlik fazilatiga ega bo‘lish bilan birga, bu sifatni o‘quvchilarda majburiy yo‘l bilan shakllantirilishi mumkin emasligini, o‘quvchini majburan sevib bo‘lmagani kabi, majburiy mehnatni ham sevib bo‘lmasligini bilishi lozim.

Mas’uliyat hissi pedagog uchun eng zarur bo‘lgan axloqiy sifatdir. Lekin pedagog faoliyatida u ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki boshqalar va umuman insonlar o‘z faoliyatlari va burchlari uchun mas’ul bo‘lsalar, pedagog butun o‘quvchilar jamoasi faoliyati va burchi uchun ham mas’uldir.Mas’uliyat va burch bir-biriga juda yaqin tushunchalardir. Burch muayyan sharoitda axloqiy me’yorlar talab qiladigan me’yorlarni anglashi, bajarilishini bildiradi. Mas’uliyat esa mana shu burch qay darajada bajarilgani yoki bajarilmagani uchun javobgarlikni sezishidir.

Javobgarlikni sezish esa bir qator holatlarga bog‘liq bo‘lib, ular tashkilotchi pedagog mas’uliyati uchun ham to‘la taalluklidir. Bular quyidagilar:

1. O‘quvchining o‘ziga qo‘yilayotgan ijtimoiy va axloqiy talablarni bajarishga qodir yoki qodir emasligi.

2. O‘quvchi bu talablarni qay darajada anglagani va tushungani.

3. Bu talablarni bajarish uchun qanday imkoniyatlarga ega va qanday imkoniyatlarga ega emasligi.

4. Bu talablarni bajarish oqibatlariga u darajada javobgar yoki javobgar emasligi. Sanab o‘tilgan holatlar pedagogning tashkilotchilik faoliyatida kuchliroq seziladi. Pedagogning mas’uliyati faqat o‘z oldiga qo‘yilgan talablarni emas, balki butun o‘quvchilar jamoasi oldiga qo‘yilayotgani talablarni anglashi, faqat o‘zini emas, butun jamoa imkoniyatlarini hisobga olishi va jamoa faoliyati oqibatlari uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga ola bilishi kerak.

NATIJALAR

Bo‘lajak o‘qituvchining tashkilotchiligi o‘quvchini o‘qitish, tarbiyalash, rivojlantirish jarayoni amalga oshirilayotgan ijtimoiy muhitni yaxshilashga tayyorligini ko‘zda tutadi. O‘qituvchining tashkilotchilik ko‘nikmasi mazkur muhim tavsifiga ko‘ra, bizningcha pedagogik faoliyatning ijobiy ijtimoiy yo‘nalganligini tushunish kerak bo‘lib, bu shaxsning ayrim aksentuallashgan xususiyatlarining salbiy ta’sirining chegarasini pasaytirishga imkon beradi.

O‘qituvchilar tomonidan yuqori axloqiy majburiyatlarni o‘z faoliyatiga ko‘rsatma sifatida idrok etish nafaqat maktabdagi ma’naviy-psixologik iqlimni yaxshilaydi, balki o‘qituvchining o‘zining ruhiy

holatiga ijobiy ta’sir qiladi. Bu holatda o‘qituvchilarga motivasion o‘zini-o‘zi boshqarish tizimida dono xulq prinsiplariga rioya etish to‘g‘risidagi tavsiyalarni berish o‘rinlidir. Bular quyidagi prinsiplardir:

– asosiyni ikkinchi darajalidan ajratishni bilish;


– ichki hotirjamlik, vaziyatli xalaqitlardan himoyalanish, shaxsiy qadriyatlariga tayanish;

– emotsional yetuklik va barqarorlik, oliy emotsional-qadriyatli me’yor tizimiga tayanish;

– rivojlanish mantiqi, rivojlanish bosqichlari, tuzatish uchun imkoniyatlar asosida hodisalarga ta’sir etish choralarini bilish;

– muammoga turli nuqtai nazarlardan yondasha olish, tizimli fikrlay olish;

– ixtiyoriy kutilmagan hodisalarga tayyorlik, inqirozga qarshi yondashuv, ehtiyotkorlik;



Bo‘lajak o‘qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirish modeli

– voqelikni qanday bo‘lsa shunday idrok etish, realistlik; voqelikni noadekvat idrok etish ta’sir javoblari va unga ta’sir etish natijalarining noadekvatligiga olib keladi;

– muammoli vaziyat doirasidan chiqish, muammoni hodisalarning yanada yirik majmui mazmunida, kengroq ko‘ra olish;

– kuzatuvchanlik, bunda nafaqat voqelikni, balki o‘z-o‘zini, o‘z-o‘zidagi o‘zgarishlarni kuzatish;

– boshqalarni tushunishga intilish;

– uzoqni ko‘ra olish – hodisalarning mantiqi va rivojlanish istiqbollarini tushunish;

– barcha sodir bo‘layotganlardan ijobiy tajribani egallash ko‘nikmasi.

MUHOKAMA

Bo‘lajak o‘qituvchining kuchli ijtimoiy, kasbiy-psixologik, tashkilotchilik sifatlari qatorida quyidagilar ta’kidlanadi: muloqotchanlik va rivojlangan tasavvur empatiya va yuqori sezgirlik bilan birgalikda; yaqqol ifodalangan altruizm va muloqotdan quvonch hurmatga va o‘zini-o‘zi takomillashtirishga ehtiyoj bilan birgalikda, beg‘arazlik va qalbning mustahkamligi, yuqori axloqiylik, to‘g‘ri so‘zlik va adolat, shaxsiy maftunkorlik va boshqalar.

Ta’lim tashkilotchilari maktab muhiti uchun umumiy bo‘lgan muammolardan – fikrlardagi juda keskinlik, yuqori konformizm va pedagogik jarayon uchun ahamiyatli hisoblangan motivasion sohadagi chetlanishlardan ham holi emas.[4]

Bugungi kunda oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarda tashkilotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha tayyorlash, ularda nazariy bilim va kasbiy ko‘nima hosil qilish maqsadga muvofiq. Buning uchun tashkilotchilik madaniyati bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, individual kuzatish va muammolarini hal qilish usullari bilan bo‘lajak mutaxassislar qurollantirilishi kerak. O‘qituvchi – pedagogik va psixologik jihatdan o‘z ixtisosligi bo‘yicha maxsus ma’lumotga ega, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlarga boy ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatuvchi shaxsdir.

Bo‘lajak o‘qituvchi ta’lim jarayonida o‘qitish shakllarini optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g‘oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Hozirgi kunda o‘qituvchining pedagogik mahoratida “Bilish, tushunish, ko‘llash, tahlil qilish, sintez qilish, baholash” kabi didaktik qonuniyatlar ta’lim berishning muhim kategoriyalari sifatida e’tirof etilgan. Shaxsga ta’lim-tarbiya berish nihoyatda murakkab jarayon, qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uni tashkil etish mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilovchi muhim ahamiyatga molik bo‘lgan omil ekanligi ta’kidlanadi.[5]

O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo‘yilgan. Tarbiyachi – ustoz bo‘lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o‘stirishi, ma’rifat ziyosidan bahramand qilishi, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirishi uchun, eng avvalo, tarbiyachining o‘zi ana shunday yuksak tapablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo‘lishi kerak. Bu tezis o‘z navbatida o‘qituvchilarning yuksak kasbiy va shaxsiy fazilatlar egasi bo‘lishini taqozo etadi. Shuning uchun ham o‘qituvchi oldiga qo‘yilgan vazifalar o‘ta murakkab, mas’uliyatli va ayni paytda sharaflidir.

Bo‘lajak o‘qituvchi o‘z tajribalaridan, tashkilotchilik madaniyatidan va kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda, sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini e’tiborga olib zamonaviy darslarning quyidagi kombinatsiyalariga alohida e’tibor berish lozim:

- integral fanlarning ilg‘or yutuqlari, kompyuter, pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish, darsni hozirgi zamon o‘quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish;

- darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta’minlash;

- o‘quvchilarning qiziqishlari, iqtidori va talablarini e’tiborga olgan holda, ular tomonidan bilimlarning puxta o‘zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

- o‘quvchilarda fanlarning o‘zaro aloqadorligi asosida bilishga qiziqishni rivojlantirish;

- o‘quvchilar tomonidan egallangan bilim va malakalarga, shuningdek, ular ongi va tafakkurini rivojlantirish darajasiga tayanish;

- o‘quvchining o‘zi qiziqqan, orzu qilgan kasbi bo‘yicha mahoratini har tomonlama shakllantirishni motivasiyalash va faollashtirish;

- o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning barcha bosqichlarida mantiqiylik va emotsionallikni ta’minlash;

- pedagogik texnologiyalarning eng so‘nggi yutuqlaridan o‘z o‘rnida samarali foydalanishni bilish;

- zarur bilim, ko‘nikma va malakalar, fikrlash va faoliyatning ratsional usullarini shakllantirish;

- mavjud bilimlarni dunyoviy bilimlar bilan doimo boyitib borish va o‘z ehtiyoji darajasida foydalanish;

- har bir darsni yuksak mahorat bilan puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashxislash va taxmin qilish.

XULOSA

Xulosa qilganda, o‘qituvchilarda tashkilotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ularning ta’lim muassasasidagi va dars jarayonidagi tashkiliy muammolarni bartaraf etishga, darsni tashkil etishda kreativlikni, tashabbuskorlikni, innovasion o‘zgarishlar qila olishni rivojlantiradi. Suggestiv qobiliyatning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, uning o‘qituvchi shaxsi va kasbiy fazilatlarining o‘zaro bog‘liqligidadir. O‘qituvchi inson sifatida shaxsiy fazilatlarga ega bo‘lishi bilan birga, kasbiy, ya’ni ixtisoslik fazilatlariga ega bo‘lishi lozimligini tajriba ko‘rsatmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Пищулин Н.П, Пищулин С.К, Бетуганов А.А.. Социальное управление: теория и практика: Учебное пособие: в. 2 т. — М.: ИКЦ «Академкнига», 2003--Т. 1,- 451 с.

2.Холиқов А. Педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. – Т.: «IQTISODMOLIYA» нашриёти, 2010. – Б. 158.

3.Сериков В.В. Образование и личность. Теория и практика проек-тирования педагогических систем. - М: Издательская корпорация «Логос», 1999.-С. 272.

4.Мышление учителя: Личностные механизмы и понятийный аппа¬рат / Под ред. ЮЛ І. Кулюткина, Г.С. Сухобский. – М.: Педагогика, 1990.- 104 с.

[1] Умаров Б.М. Касбий педагогика. – Тошкент, 2017. – Б. 19.

5.Мышление учителя: Личностные механизмы и понятийный аппа¬рат / Под ред. ЮЛ І. Кулюткина, Г.С. Сухобский. – М.: Педагогика, 1990.- 104 с.